



TARIXNI O'RGANISHDA YOZMA VA MODDIY MANBALARNING  
O'RNI VA AHAMIYATI

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Alisherova Ruxshona Ixvoljon qizi***

***Ilmiy rahbar: Pozilova Muqaddas Hikmataliyevna***

+998338872307

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada tarix fanini o'rganishda yozma va moddiy (ashyoviy) manbalarning tutgan o'rni hamda ularning ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Yozma manbalar orqali tarixiy voqealar, siyosiy jarayonlar va ijtimoiy munosabatlar yoritib berilsa, moddiy manbalar yordamida esa ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati va xo'jalik faoliyati o'rganiladi. Maqolada ushbu manbalarning o'zaro bog'liqligi, bir-birini to'ldiruvchi jihatlari hamda tarixiy haqiqatni tiklashdagi roli asoslab beriladi.

***Kalit so'zlar:*** tarixiy manbalar, yozma manbalar, moddiy manbalar, arxeologiya, tarix fani, tarixiy haqiqat, madaniy meros.

**The role and significance of written and material sources in the study  
of history.**

Namangan State Pedagogical Institute,

Technological Education

1<sup>st</sup> –year student. Alisherova Ruxshona Ixvoljon qizi

+998338872307

***Annotation:*** This article examines the role and scientific significance of written and material sources in the study of history. Written sources provide information about historical events, political processes, and social relations, while material sources reveal the daily life, culture, and economic activities of past



societies. The article also highlights the interconnection and complementary nature of these sources in reconstructing historical truth.

**Keywords:** historical sources, written sources, material sources, archaeology, historical studies, historical truth, cultural heritage.

## **Роль и значение письменных и вещественных источников в изучении истории.**

Алишерова Рухшона Ихволжон кизи

Студентка 1 курса

направления Технологическое образование

Наманганский государственный педагогический институт.

+998338872307

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и научное значение письменных и вещественных (материальных) источников в изучении истории. Письменные источники позволяют изучать исторические события, политические процессы и общественные отношения, тогда как вещественные источники раскрывают особенности быта, культуры и хозяйственной деятельности древних обществ. В статье также анализируется взаимодополняющая роль этих источников в восстановлении исторической истины.

**Ключевые слова:** исторические источники, письменные источники, вещественные источники, археология, историческая наука, историческая истина, культурное наследие.

Tarix fanining insoniyat taraqqiyotidagi oʻrni shundan iboratki, oʻtmishni oʻrganish, jamiyatda boʻlayotgan jarayonlarni anglash va ulardan kerakli xulosa chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning bugungi taraqqiyoti uning tarixiy oʻtmishi va tajribasi bilan chambarchas bogʻliq. Tarixni toʻlaligicha oʻrganish va anglab yetish uchun albatta tarixiy manbalar oʻrni beqiyos. Chunki manbalarsiz tarixiy shaxslar, jarayonlar va voqealar ustidan aniq xulosalar chiqarib boʻlmaydi. Tarixni oʻrganishda manbalar ikki turdagi manbalar muhim ahamiyatga ega. Yozma va moddiy manbalar tarix fanining asosiy poydevorini tashkil etib, oʻtmish haqidagi



bilimlarimizni boyitadi. Shu sababli tarixni o'rganishda yozma va moddiy manbalarning o'рни va ahamiyatini chuqur tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Tarixiy manbalar shartli ravishda 6 guruhga bo'linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, og'zaki va kino-foto-fono hujjatlar.[1]

Tarixiy manbaa deb, o'tmishda sodir bo'lgan voqea va jarayonlardan xabar beruvchi barcha yozma va moddiy dalillarga nisbatan aytiladi. Tarixiy manbalar tarixchilarni o'tmish bilan bog'lovchi asosiy yo'l hisoblanadi. Mazkur maqolada asosan yozma va moddiy manbalar tahlil qilinadi, chunki ular tarix fanidan eng ishonchli va keng qo'llaniladigan manbalar hisoblanadi.

**Yozma manbaalar** – tarixiy manbalarning muhim va asosiy turi hisoblanib, yozuv orqali saqlanib qolgan tarixiy ma'lumotlar majmuasi. Kishilik jamiyatining ijtimoiy va shaxsiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Ular tarixiy voqealarni aniq sanalar, joylar va shaxslar bilan bog'laydi. Yozma manbalarning asosiy turlariga: solnoma va yilnomalar, davlar hujjatlari, farmonlar va qonunlar, tarixiy asarlar kiradi. Misol uchun Avesto kitobi, Behustun yozuvlari, Ko'k turk bitiklari, alloma faylasuflarning qoldirgan asarlari qadimgi manba sifatida foydalaniladi. Ushbu manbalar yurtimizda qadimda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealari haqida so'zlaydi.

**Solnoma va yilnomalar** – tarixiy asar. Yilnoma, odatda, tarixiy voqealarning bevosita ishtirokchisi yoki guvohi bo'lgan qalam ahli tomonidan yoziladi. Yilnoma muallifi muarrix (tarixchi) deb nomlangan. Yilnoma yozish Sharq mamlakatlarida qadimdan mavjud bo'lib, VIII asrdan boshlab hijriy yil hisobi tarixning boshlanishi sifatida qabul qilingan. Hijriy yil 2 xil usulda hisoblanadi. Oy kunlari asosida hisoblansa – “hijriy qamariy”, quyosh kunlari asosida hisoblansa – “hijriy shamsiy” nomi bilan yuritiladi. Qamariy yil 354 kun, shamsiy yil 365 kundir. Bayon qilinayotgan voqea qaysi yilda sodir bo'lgani, ya'ni qamariy yil yoki shamsiy yil ekani yilnomada ta'kidlanadi. Boburning “Boburnoma”, Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Soflik bog'i”), Abdulg'oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, Munis Xorazmiy va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarlari yilnomalarning eng yaxshi namunalari.[2]



**Tarixiy hujjatlar** – davlat organlari, hukmdorlar, idoralar yoki rasmiy shaxslar tomonidan muayyan tarixiy sharoitda tuzilgan va huquqiy, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi yozma manbalar tushunchasi. **Farmon** – bu hukmdor yoki oliy hokimiyat egasi tomonidan chiqarilgan, majburiy ijro etilishi shart bo'lgan rasmiy buyruqdir. Farmonlar orqali tarixshilar davlat boshqaruv tizimi, harbiy, moliyaviy va ma'muriy islohotlar, hukmdorning ichki va tashqi siyosati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. **Qonun** - jamiyat hayotini tartibga soluvchi, umummajburiy qoidalarni belgilovchi rasmiy hujjatdir. Qonunlar tarixiy jihatdan davlat tuzilmasini, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini, mulk va soliq tizimini belgilab bergan. Ular orqali jamiyatdagi huquqiy madaniyat, ijtimoiy tenglik yoki tengsizlik, davlat va shaxs munosabatlari o'rganiladi. Misol uchun: Hammurapi qonunlari – qadimgi huquq tizimining namunasi, “Yassa” – Chingizxon davridagi huquqiy me'yorlar majmuasi. Bu turdagi manbalar voqealarni bevosita aks ettirishi, tarixiy davrning real huquqiy manzarasini berishi bilan ustunlik yaratadi. Shu sababli, tarixchilar hujjat, farmonlar va qonunlarni eng ishonchli va muhim manba deb baholaydilar.

**Tarixiy asarlar** – bu muallif tomonidan muayyan tarixiy davr, voqea yoki shaxslar haqidagi ma'lumotlarni manbalarga tayangan holda yozilgan yozma asardir. Tarixiy asarlar ham o'tmishni anglashda muhim manba hisoblanib, tafakkur mahsulidir. Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Sharofiddin Ali Yazdining “Zafarnoma” asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Rivojlangan feodal jamiyat davrida (XIII-XV asrlar) yozma manbalarning yangi turi – badiiy adabiyot shakllandi. O'rta asrlarda Guttenberg tomonidan kitob bosish kashf etilgunga qadar (1445-yil) yozilgan hamma hujjatlar va kitoblar qo'lyozma sifatida, hattotlar tomonidan yaratilgan. Ular bizga davr ruhini g'am-tashvishlari-yu quvonchlarini yetkazib beradi.[3]

**Moddiy (ashyoviy) manbalar** – o'tmishdagi insonlar hayoti, faoliyati va madaniyatini o'rganishga yordam beradigan, moddiy shaklda mavjud bo'lgan tarixiy yodgorliklar va buyumlardir. Ularga qadimiy turarjoylar, qurollar, tangalar, hayvonlar va odamlar rasmi tushirilgan toshlar, qadimiy bino qoldiqlari (qasr,



ibodatxonalar.) kiradi. Tarixshunoslikda moddiy manbalar inson onggi va tafakkuri orqali mustaqil yaratilgani sababli eng ishonchli tarixiy dalil sirasiga kiradi. Chunki tarixiy asar, qo‘lyozma hatto hujjatlarni ham soxtalashtirish mumkin, ammo, moddiy buyumlarni soxtalashtirish birmuncha mushkul hisoblanadi.

**Arxeologik topilmalar** – arxeologlar tomonidan yerni qazish orqali aniqlangan moddiy manbalar bo‘lib, ular yozma manbalar mavjud bo‘lmagan davrlarni o‘rganishda asosiy tarixiy dalil hisoblanadi. Ibtidoiy odamlarning turar joylari, qabrlar va ularning qoldiqlari shular jumlasidandir. Misol uchun, 1938-yili Boysun tog‘larida joylashgan Teshiktosh g‘oridan 8-9 yoshdagi neandertal bolaning suyak qoldiqlari topilgan. Marhumni ko‘mish, dafn qilingan joy atrofidagi tog‘ echkisining shoxlari va qabr ichidan topilgan turli buyumlar tarixchilarga o‘sha davrdagi dastlabki diniy bilimlar to‘g‘risida ancha ma’lumot bergan. Sal keyinroq, 1949-yilda M.M.Grasimov tomonidan kalla suyagining tiklanishi, neandertal odamning yuz tuzilishi haqida tasavvur va bilim paydo qilgan.

**Inshootlar (me‘moriy yodgorliklar)** – bu insonlar tomonidan ijtimoiy, diniy, harbiy yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun barpo etilgan me‘moriy obyektlar. Ular orqali tarixiy davrning texnik, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi qay darajada ekanligini aniqlash mumkin. Eng mashxur me‘moriy inshootlarga Xitoydagi Buyuk Xitoy devori, Italiyadagi Kolizey va Piza minorasi, Hindistondagi Toj Mahal yodgorliklarini misol keltirish mumkin. Samarqanddagi XV asr me‘morchiligining nodir namunalaridan biri – Ulug‘bek rasadxonasi. Uning arxeologik qoldiqlari 1908-yil V.L.Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari natijasida topilgan.[4] Temiriylar davrida barpo etilgan ushbu inshoot orqali o‘sha davrdagi ilm-fanga bo‘lgan e‘tiborni ko‘rish mumkin.

**Mehnat va ov qurollari** – bu inson tomonidan yasalgan va kundalik yumushlar hamda ov jarayonlarida foydalanilgan moddiy buyumlar. Mehnat va ov qurollarining o‘zgarishi orqali biz inson aql-tafakkurining qanchalik rivojlanayotganini ko‘rishimiz mumkin. Mehnat qurollari odamlarga yegulik toppish uchun kerak bo‘lgan. Dastlabki mehnat qurollari sodda edi.[5] Insonlar birinchi



bo‘lib bir tomoni urib o‘tkirlangan qo‘pol tosh qurollardan foydalanishgan, asrlar o‘tib kamon, o‘q-yoyni kashf ettilar.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanini chuqur o‘rganishda yozma va moddiy manbalarning o‘rni beqiyos. Yozma manbalar orqali siyosiy va ijtimoiy jarayonlar, davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida tizimli va aniq ma’lumotga ega bo‘linadi. Moddiy manbalar esa insoniyatning kundalik hayoti, xo‘jalik faoliyati, madaniyati, qadriyatlari hamda texnologik taraqqiyotini bevosita o‘zida aks ettiradi. Ular tarixiy haqiqatni aks ettiruvchi eng ishonchli dalil vazifasini bajaradi.

Tarixiy haqiqatni to‘liq tiklashda faqatgina bitta manba turiga tayanib emas, balki har bir manba turini o‘zaro qiyosiy tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun tarixshunoslikda har bir manba alohida ahamiyatga ega. Tarixni tiklashda manbalarga ilmiy yondashuv asosida murojat qilish, ularni asrab avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish muhim vazifadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. B.N.Mirzayev, A.S.Majidov, Manbashunoslik (XVI-XIX asrning birinchi yarmi), Toshkent 2022, 4-bet.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. B.Mirkomilov, F.Aqchayev, O.Mamirov, O‘rta asrlar tarixi, o‘quv qo‘llanma, Toshkent-2016, 9-bet.
4. “Ulugh Beg Observatory”, Atlas Obscura.
5. A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy, Qadimgi dunyo tarixi, Toshkent-2013, 14-bet.